RANGLAR PSIXOLOGIYASINING INSONGA TA’SIRI

Zulayho Saminjonova
Amaliy psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ranglar psixologiyasi bu inson xulqining determinantlari sifatida turli bo‘yoqlarni o‘rganishdir. Rang insonning idrok jarayoniga ta’sir qilib bevosiya hayotiy xulq-atvor va xatti-harakatlarini amalga oshirishida o‘z ifodasini topadi. Mazkur maqolada ranglarning psixologik tabiati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: rang, hissiy ta’sir, ranglar psixologiyasi, marketing, brending.

Bizni o‘rab turgan ranglar jismimizni hissiy kuch-quvvat bilan to‘ldiradi. Ranglar jilosi bizni hayratga soladi, ilhomlantiradi va, hattoki, hayotimizni o‘zgartirishga qodir bo‘ladi. Ranglarning tabiiy kuchi, ularning jismoniy asoslari, his-tuyg‘ularimizga ta’sir qilar ekan, ranglararo muhitni o‘zgartirish yo‘lini mustaqil ravishda tanlashga va baxtli hamda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun to‘g‘ri kayfiyatga erishishga yordam beradi.

Men ranglar bilan bog‘liq faoliyat sohalaridan me’morlar, interyer dizaynerlari, dizaynerlar, stilistlarning ishlarini ko‘zdan kechirar ekanman, ular qanday fikrlar va his-tuyg‘ularni bizga yetkazmoqchi bo‘lishayotganini anglashga harakat qilaman, ularning yordami bilan hayotimizni qanday yaxshilashimiz mumkinligini o‘rganaman. Insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va o‘zini ifoda etish uchun rangdan qanday foydalanish lozimligini o‘rganish lozim; rang bizga hayotning barcha sohalarida - yotoqxonangizdan tortib to kengash yig‘ilishigacha muvaffaqiyatga erishishga yordam berishini anglash darkor [3].

Ranglar insonlarda muayyan his-tuyg‘ularni yuzaga keltirishga qodir xususiyatga ega. Albatta, bunda insonning yoshi, jinsi va madaniy saviyasiga bog‘liq jihatlarni ham e’tiborga olish lozim. Ranglar psixologiyasini tadqiq qilishga oid izlanishlar zamonaviy psixologiya sohasida ko‘plab o‘tkazilmoqda. Ularda asosan ranglarning inson kayfiyatiga, xulq-atvoriga, kognitiv imkoniyatlariga va psixik jarayonlariga ta’sir qilish mexanizmlari ochib berishga urinishlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda, ranglarga doir o‘ziga xos qirralarning mavjudligini ham inkor etmaslik lozim.

Ranglar psixologiyasi marketing va brending sohalarida ham keng qo‘llaniladi. Marketologlar rangni mahsulotlarni xarid qilish jarayonida muhim ta’sir kuchiga ega ekanligini uqtiradilar. Logotiplar esa mijozni jalb qilishda katta ahamiyatga ega ekanligi, bunda muayyan kompaniyaga tegishli mahsulotning individualligi bilan o‘ziga jalb qilish xususiyatiga ega ekanligi e’tirof etiladi. Chunki logotip aniq ranglar ifodasiga ega bo‘ladi. Masalan: Pushti rang Victoria’s Secret brendini ifodalaydi. Ranglar do‘konlar, supermarketlar, shoxobchalarning peshtaxtalarini bezashda muhim

hisoblanadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, qizil rangli peshtaxta spontan xaridorlarni jalb qilsa, to‘q ko‘k rang inson tabiatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qizil va sariq ranglarning qorishmasi ochlik hissini qo‘zg‘otishi sababli restoranlarni bezashda aynan shu rangga urg‘u beradilar. McDonald’s, Burger King hamda In-N-Out Burger kabi taomlanish shohobchalarining muvaffaqiyatli o‘sishi shu asosda yuzaga kelganligini tan olish darkor. Ushbu hodisa “ketchup va xantal” nazariyasi deb ataladi.

Nafaqat marketing ranglar psixologiyasiga oid tamoyillardan foydalanadi, balki tibbiy terapiya, sport, dizayn kabi sohalar ham o‘z faoliyatlarida ranglarga tez-tez murojaat qiladilar. Karl Yung ranglar psixologiyasini tavsiflovchi qarashlarning yuzaga kelishida ilk qadam qo‘ygan olimlardan biri hisoblanadi. U inson hayotida ranglarning sifatiy xosliga hamda ta’sir mexanizmlarini ishlab chiqqan. Olimning fikricha, rang - ongostining ona tilidir.

Ranglar psixologiyasi psixologiyaning sohasi sifatida paydo bo‘lguniga qadar eramizdan avvalgi 2000 yillarda davolash usuli sifatida qo‘llanilgan. Qadimgi misrliklar rang bilan “davolash”ni kristallar hamda bo‘yalgan xonalar terapiyasi vositasida amalga oshirganlar. Tibbiyotga oid ilk risolalardan biri “Ney Szin”da aytilishicha, ranglar bilan davolash amaliyoti o‘sha davrlarda keng qo‘llanilgan.

Karl Yung XX asrda ranglarning tuzilishi va ahamiyati, shuningdek san’at sifatidagi ranglar psixoterapiyasi kabi masalalar qiziqtirgan. Yungning tadqiqotlari mandallardan boshlab to Pikassoning ishlarigacha, hatto tillarang ranglarning universal ko‘rinishigacha tahlil qilishga bag‘ishlangan. Charlz A.Rayli II ning ta’kidlashicha, “tillarang bo‘yoqlar yuksak ma’naviyat va intuitsiyani ifodalaydi”. Ranglarni turli madaniyatlar va davrlar nuqtai nazariga ko‘ra hamda mijozlarining mustaqil yaratgan mandallarini o‘rganar ekan, K.Yung ranglarning tili yohud kodini ishlab chiqishga uringan. U ranglarning sirli olamini chuqur tadqiq qilib alkimyo transmutatsiyasiga yo ‘lni ochadigan kalitni topgan [1]. Olimning izlanishlari zamonaviy ranglar psixologiyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan.

Ranglar psixologiyasining talqini oltita tamoyilga asoslanadi:

1. Har bir rang muayyan belgini ifodalaydi.

2. Ranglarning belgilari yoki o‘zlashtirilgan belgiga yoki tabiiy nasliy belgiga tayanadi.

3. Ranglarni idrok qilish inson tomonidan baholashni namoyon qiladi.

4. Ranglarni baholash jarayoni muayyan xulq-atvorga undaydi.

5. Rang odatda o‘z ta’sirini avtomatik ravishda amalga oshiradi.

6. Rangning belgisi va samarasi o‘zaro bog‘liq bo‘ladi [2].

Fikrlarimizni yakunlar ekanmiz, aytish joizki insonning ijtimoiy faoliyatida ranglardan maqsadli foydalaniladi. Chunki ularning inson ruhiyatiga ta’siri qonuniydir. Biz turmush tarzimizni ranglar ishtirokisiz tasavvur qila olmaymiz. Bizning kundalik

hayotimizni qisman ranglar boshqarishini anglaganimizda ularning mohiyatlariga to‘g‘ri baho bergan bo‘lar edik.

Adabiyotlar:

1. Антоненко Е. Ю. Язык цвета / Е. Ю. Антоненко — «Фолио», 2011
2. Базыма Б.А. Цвет и психика. Монография. Харьков, 2001
3. Yuldasheva M., Saminjonova Z. Ranglarning psixologik tabiati. Uslubiy qo‘llanma. – Farg‘ona: 2023 - 75 b.